

INGLIZ TILIGA TO‘LIQ SIG‘MAYDIGAN MADANIY MA’NOLAR: TARJIMA, MADANIYAT VA DUNYOQARASH MASALASI

Usmonova Diyoraxon Furkatjon qizi

FarDU Ingliz tili amaliy kursi kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: diy.usmonova@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3349-8955

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turli tillarda mavjud bo‘lgan, biroq ingliz tilida bir so‘z bilan to‘liq ifodalash qiyin bo‘lgan madaniy konseptlar tahlil qilinadi. Tadqiqot materialini sifatida foydalanuvchilar tomonidan onlayn muhokamalarda keltirilgan misollar saralab olindi. Ular lug‘aviy ta‘rif sifatida emas, balki oddiy til egalari madaniy ma‘noni qanday his qilishi va tushuntirishga urinishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi. Tahlilda saudade, hiraeth, sobremesa, hygge, lagom, sisu, tarof, ubuntu, kapwa, gezelligheid, apapacho, meraki, filotimo va boshqa tushunchalar asos qilib olindi. Maqolaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, tarjima qiyinligi ingliz tilining imkoniyati cheklanganligidan emas, balki ayrim ma‘nolar muayyan madaniy tajriba, ijtimoiy munosabat va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqligidan kelib chiqadi.

Kalit so‘zlar: madaniy konsept, tarjima, ekvivalentsizlik, til va madaniyat, lingvistik dunyoqarash, madaniyatlararo kommunikatsiya.

ABSTRACT

This article analyzes cultural concepts that exist in different languages, but are difficult to fully express in one word in English. The research material was selected from examples provided by users in online discussions. They were considered not as a dictionary definition, but from the point of view of how ordinary speakers of the language perceive and try to explain the cultural meaning. The analysis was based on the concepts of saudade, hiraeth, sobremesa, hygge, lagom, sisu, tarof, ubuntu, kapwa, gezelligheid, apapacho, meraki, filotimo and others. The main idea of the article is that the difficulty of translation does not arise from the limitations of the English language, but from the fact that some meanings are closely associated with a particular cultural experience, social relations and value system.

Keywords: cultural concept, translation, non-equivalence, language and culture, linguistic worldview, intercultural communication.

KIRISH

Har bir til inson tajribasini o'ziga xos tarzda tasniflaydi. Bir tilda oddiy va tabiiy tuyuladigan so'z boshqa tilda uzun izoh talab qilishi mumkin. Masalan, ispan tilidagi *sobremesa* faqat ovqatdan keyingi suhbat emas; u ovqatlanish jarayonining davomiga aylangan ijtimoiy muloqot shaklidir. Daniya madaniyatidagi *hygge* esa faqat "qulaylik" yoki "uyg'un muhit" emas, balki yaqinlik, xavfsizlik, osoyishtalik va samimiylik bilan bog'liq murakkab madaniy holatdir.

Bunday so'zlar ko'pincha "tarjima qilib bo'lmaydigan" tushunchalar sifatida taqdim etiladi. Aslida bu ibora ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak. Chunki deyarli har qanday tushunchani boshqa tilda izohlash mumkin. Muammo butunlay tarjima qilib bo'lmaslikda emas, balki bir so'zli ekvivalent topish qiyinligidadir. Ingliz tili bu tushunchalarni izohlashi mumkin, lekin ko'p hollarda ularning emotsional, tarixiy, axloqiy yoki ijtimoiy zichligini bir so'z bilan bera olmaydi.

Roman Yakobson tarjimini faqat so'zlarni almashtirish jarayoni sifatida emas, balki ma'noni boshqa belgilar tizimi orqali qayta ifodalash jarayoni sifatida tushuntiradi (Jakobson, 1959). Anna Wierzbicka esa ayrim so'zlarni madaniyatning "kalit so'zlari" deb baholaydi, chunki ular jamiyatning asosiy qadriyatlarini va dunyoni idrok etish usullarini aks ettiradi (Wierzbicka, 1997). Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilida to'liq ekvivalentga ega bo'lmagan madaniy konseptlar til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi aloqani o'rganish uchun muhim material beradi.

Nazariy asos

Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya doirasida doimiy muhokama qilinadi. Til faqat axborot uzatish vositasi emas; u jamiyat a'zolari qanday his qilishini, qanday baholashini, qanday munosabat qurishini va qaysi xatti-harakatlarni maqbul deb bilishini ham ko'rsatadi.

Kramersch tilni madaniy identifikatsiya maydoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson til orqali nafaqat gapiradi, balki o'zini muayyan madaniy jamoaga mansub deb his qiladi va boshqalar bilan chegarani belgilaydi (Kramersch, 1998). Shu sababli madaniy konseptni tarjima qilishda faqat lug'aviy ma'no yetarli emas; so'z ishlatiladigan vaziyat, muloqot ohangi, ijtimoiy munosabat va qadriyat ham hisobga olinishi kerak.

Goddard va Wierzbicka leksik ma'nolar turli madaniy sohalar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ularning yondashuvida so'z ma'nosi oddiy sinonimlar ro'yxati bilan emas, balki inson tajribasining madaniy tarzda tashkil etilishi bilan tushuntiriladi (Goddard & Wierzbicka, 2014). Demak, *saudade*, *lagom* yoki *tarof* kabi tushunchalar faqat xorijiy so'zlar emas, balki madaniy fikrlash shakllaridir.

Tadqiqot materiallari va tanlash mezonlari

Maqola uchun material onlayn muhokamalarda foydalanuvchilar tomonidan keltirilgan misollardan saralandi. Bu material akademik lug‘at yoki rasmiy korpus maqomiga ega emas. Shunga qaramay, u juda foydali: chunki oddiy til egalari o‘z tilidagi ma‘nolarni boshqa tilga tushuntirishda qayerda qiynalayotganini ochiq ko‘rsatadi.

Saralash jarayonida haqoratli, vulgar, milliy yoki siyosiy stereotiplarga asoslangan, ataylab kulgi uchun yozilgan va ilmiy tahlil uchun beqaror misollar chiqarib tashlandi. Shuningdek, faqat grammatik qiziqish uyg‘otadigan, lekin madaniy mazmuni yetarli ochilmagan misollar asosiy tahlilga kiritilmadi. Tanlangan birliklar emotsional holat, ijtimoiy marosim, axloqiy qadriyat, kundalik amaliyot yoki dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lishi shart deb olindi.

1-jadval. Materialni saralash mezonlari

Mezon	Tavsif	Natija
Madaniy mazmun	So‘z yoki ifoda oddiy predmetni emas, balki madaniy tajriba, odat, emotsiya yoki qadriyatni bildirishi kerak.	Faqat madaniy jihatdan izohlashga arziydigan birliklar qoldirildi.
Axloqiy neytrallik	Haqorat, vulgarizm, siyosiy nafrat, milliy stereotip va kamsituvchi misollar chiqarildi.	Maqola ilmiy va neytral tusda saqlandi.
Tarjima qiyinligi	Ingliz tilida bir so‘zli oddiy ekvivalent yo‘qligi yoki ekvivalentning ma‘no maydoni torligi hisobga olindi.	Tahlil tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan asoslandi.
Izohlanish imkoniyati	Konseptni misol, vaziyat va madaniy sharh orqali tushuntirish mumkin bo‘lishi kerak.	Tasodifiy yoki tushunarsiz internet hazillari ishlatilmadi.

Emotsional konseptlar: sog‘inch, mehr va ichki holat

Birinchi guruhga emotsional tajribani ifodalovchi tushunchalar kiradi. Portugal tilidagi saudade ko‘pincha “sog‘inch”, “nostalgiya” yoki “kimnidir qo‘msash” sifatida tarjima qilinadi. Biroq bu tarjimalar so‘zning to‘liq ma‘nosini bermaydi. Saudade ichida yo‘qlik, xotira, muhabbat, achinish va qaytish istagi birlashadi. U oddiy g‘am emas; u sevgi va masofa orqali shakllangan g‘amdir. Valiy tilidagi hiraeth ham shu turdagi murakkab emotsional konseptlardan biridir. Uni ko‘pincha “homesickness” deb tarjima qilishadi, lekin bu juda tor. Hiraeth uyga, o‘tmishga, yo‘qolgan makonga, avvalgi holatga yoki hatto hech qachon to‘liq mavjud bo‘lmagan orzuga nisbatan chuqur ichki tortilishni bildirishi mumkin. Bu tushuncha xotira va identiklik bilan bog‘liq.

Meksika ispan tilidagi apapacho esa mehr va taskin bilan bog‘liq. Uni “hug” yoki “cuddle” deb berish mumkin, ammo bunda faqat tashqi harakat ifodalanadi. Apapacho ko‘proq iliq quchoqlash, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, mehr bilan ovutish

ma'nolarini jamlaydi. Shuning uchun uni ba'zan "qalb bilan quchoqlash" deb tushuntirishadi. Bu ilmiy tarjima emas, lekin madaniy sezimni yaxshi beradi. Grek tilidagi meraki ham emotsional va ijodiy ishtirokni ifodalaydi. Inson biror ishni meraki bilan bajarsa, u shunchaki vazifani ado etmaydi; unga ruhini, vaqtini, mahoratini va shaxsiy munosabatini qo'shadi. Inglizcha "with passion" yoki "with care" yaqin, lekin meraki mazmunidagi ichki zavq va hunarmandona fidoyilikni to'liq bermaydi.

Ijtimoiy amaliyotlar va kundalik madaniyat

Ikkinchi guruhga bevosita ijtimoiy amaliyotlar bilan bog'liq konseptlar kiradi. Ispan tilidagi sobremesa bunga yaxshi misoldir. Bu tushuncha ovqatdan keyin stol atrofida qolib, suhbatni davom ettirish holatini bildiradi. Ingliz tilida buni "after-meal conversation" deb tushuntirish mumkin, ammo bunday tarjima juda funksional eshitiladi. Sobremesa esa ovqatlanishdan keyingi muloqotni alohida qadrlangan ijtimoiy vaqt sifatida ko'rsatadi.

Daniyaliklar ishlatadigan hygge, niderland tilidagi gezelligheid va nemis tilidagi Gemütlichkeit bir-biriga yaqin bo'lsa-da, aynan bir xil emas. Ular ko'pincha "coziness" yoki "comfort" deb beriladi. Lekin bu tushunchalarda jismoniy qulaylik bilan birga ijtimoiy iliqlik, suhbatdagi erkinlik, xavfsizlik va ruhiy yaqinlik ham bor. Xona qulay bo'lishi mumkin, lekin hygge yoki gezelligheid odatda insonlar orasidagi muhit bilan yanada kuchli bog'lanadi. Niderland tilidagi uitwaaien tushunchasi ham qiziqarli. U shamolli havoda tashqariga chiqib sayr qilish, boshni tozalash, ichki taranglikdan chiqish ma'nosini bildiradi. Inglizcha "to clear one's head" ma'noni qisman beradi, lekin unda shamol, havo, tana harakati va ruhiy yangilanish birligi yo'qoladi. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, ayrim so'zlar faqat hisni emas, balki butun madaniy vaziyatni nomlaydi. Bunday so'zlarni tushunish uchun tarjima yetarli emas; ularning ortidagi hayot tarzini ham ko'rish kerak.

2-jadval. Tanlangan madaniy konseptlar va ularning tarjima muammosi

Konsept	Til / madaniyat	Taxminiy inglizcha izoh	Nima uchun to'liq tarjima qilinmaydi?
saudade	Portugal	longing, nostalgia, missing	Sog'inch, muhabbat, xotira va yo'qlik hissi birlashadi.
hiraeth	Valiy	homesickness, longing	Uy yoki o'tmishga bog'liq chuqur identiklik hissini ham bildiradi.
sobremesa	Ispan / Lotin Amerikasi	conversation after a meal	Ovqatdan keyingi suhbat alohida ijtimoiy qadriyat sifatida tushuniladi.
hygge	Daniya	coziness	Qulaylik, samimiylik, xavfsizlik va ijtimoiy yaqinlik birga keladi.
gezelligheid	Niderland	pleasant togetherness	Joy, odamlar va muhitning iliq

			uyg'unligini bildiradi.
lagom	Shved	just enough	Miqdor emas, balki me'yor, muvozanat va ijtimoiy moslik qadriyati.
sisu	Fin	grit, resilience	Oddiy qat'iyatdan kuchliroq: og'ir sharoitda ichki bardosh.
tarof	Fors / Eron	ritual politeness	Taklif, rad etish, kamtarlik va ijtimoiy hurmat marosimi.
kapwa	Filippin	shared identity	Shaxs o'zini boshqalar bilan munosabatda anglaydi.
ubuntu	Afrika falsafiy an'analari	humanity, community	Insoniylikni jamoa va o'zaro mas'uliyat orqali tushuntiradi.
apapacho	Meksika ispan tili	affectionate hug	Quchoqlash bilan birga taskin, mehr va ruhiy qo'llab-quvvatlash bor.
meraki	Grekl	doing with passion	Ishga ruh, mahorat va shaxsiy mehr qo'shishni bildiradi.

Axloqiy va munosabatga oid konseptlar

Uchinchi guruhga insonlar o'rtasidagi munosabat va axloqiy kutishlarni ifodalovchi tushunchalar kiradi. Fors madaniyatidagi tarof murakkab vijdoniy va ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. Mezbon biror narsani bir necha bor taklif qilishi, mehmon esa bir necha bor rad etishi mumkin. Tashqaridan qaraganda bu ortiqcha marosimdek ko'rinadi. Ammo madaniyat ichida bu hurmat, kamtarlik, mehmondo'stlik va ijtimoiy masofani boshqarish usulidir. Beeman Eron madaniyatidagi nutq, maqom va hokimiyat munosabatlarni tahlil qilar ekan, bunday muloqot shakllari ijtimoiy tizim bilan bog'liqligini ko'rsatadi (Beeman, 1986).

Filippin psixologiyasidagi kapwa tushunchasi ham muhim. Pe-Pua va Protacio-Marcelino (2000) kapwa tushunchasini Filipino psixologiyasining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida izohlaydi. Kapwa oddiy "boshqalar" degani emas; u o'zlik va boshqalar o'rtasidagi umumiylikni bildiradi. Inson o'zini alohida mavjudot sifatida emas, balki munosabatlar tarmog'ida anglaydi.

Ubuntu ham shunga yaqin axloqiy-falsafiy konseptdir. U ko'pincha "Men borman, chunki biz bormiz" mazmunida tushuntiriladi. Mbiti (1969) Afrika diniy-falsafiy tafakkurida shaxs va jamoa ajralmas bog'liqlikda qaralishini ko'rsatadi. Shu sababli ubuntu faqat "insoniylik" yoki "mehribonlik" emas; u o'zaro mas'uliyat, jamoaviylik va inson bo'lishning munosabatli tabiatini bildiradi. Grek tilidagi filotimo ham bir so'z bilan to'liq berilmaydi. U sharaf, vijdon, minnatdorlik, mas'uliyat, saxovat va ichki burch hissini birlashtiradi. Inglizcha "honour", "duty" yoki "integrity" so'zlari yaqin, lekin filotimo ichidagi axloqiy impuls va shaxsiy qadr hissini to'liq bera olmaydi.

Me'yor, bardosh va hayotga munosabat

Ba'zi konseptlar madaniyatda qadrlanadigan yashash uslubini ifodalaydi. Shved tilidagi lagom shular jumlasidandir. Uni "just enough" deb tarjima qilish mumkin, lekin bu oddiy "yetarli" degani emas. Lagom ortiqchalikdan qochish, me'yorni bilish, boshqalar bilan uyg'un yashash va muvozanatni saqlash qadriyatini anglatadi. Fin tilidagi sisu esa ichki bardosh va qat'iyatni bildiradi. Inglizcha "resilience" yoki "grit" yaqin bo'lsa-da, sisu ko'proq haddan tashqari og'ir holatda ham davom etish kuchini anglatadi. Bu tushuncha fin madaniyatida iqlim, tarixiy sharoit, jismoniy mehnat va ruhiy mustahkamlik bilan bog'liq tasavvurlarni uyg'otadi.

Bunday konseptlar tasviriy emas, baholovchi xususiyatga ega. Ya'ni ular faqat inson qanday ekanini aytmaydi, balki qanday bo'lishi kerakligi haqidagi madaniy tasavvurni ham beradi. Lagom - me'yorni, sisu - bardoshni, meraki - ishga ruh qo'shishni, filotimo esa ichki axloqiy javobgarlikni qadrlaydi.

3-jadval. Madaniy konseptlarni ingliz tiliga uzatish strategiyalari

Strategiya	Qachon qo'llanadi?	Afzalligi	Cheklovi
Taxminiy ekvivalent	Konsept ingliz tilidagi yaqin so'z bilan qisman mos kelganda.	Matnni ixcham saqlaydi.	Madaniy nozikliklar yo'qoladi.
Parafraz	Bir so'z yetarli bo'lmaganda.	Ma'no aniqroq tushuntiriladi.	Matn cho'ziladi, badiiy kuch kamayishi mumkin.
Madaniy izoh	Konsept odat, marosim yoki qadriyat bilan bog'liq bo'lsa.	O'quvchi vaziyatni tushunadi.	Akademik yoki izohli matn talab qiladi.
So'zni asl shaklda qoldirish	Konsept matnda markaziy bo'lsa yoki tanish loanwordga aylangan bo'lsa.	Madaniy o'ziga xoslik saqlanadi.	O'quvchiga alohida tushuntirish kerak bo'ladi.
Misol orqali tushuntirish	Konsept hayotiy vaziyatda yaxshiroq ochilganda.	Mazmun tabiiy qabul qilinadi.	Umumiy nazariy ma'no to'liq ochilmasligi mumkin.

MUHOKAMA

Tahlil qilingan misollar madaniy konseptlarning tarjima muammosi bir necha qatlamdan iborat ekanini ko'rsatadi. Birinchi qatlam - semantik zichlik. Saudade, hiraeth, apapacho va meraki kabi so'zlar bir vaqtning o'zida bir necha hissiy holatni birlashtiradi. Tarjimon ulardan birini tanlaganda qolganlari soyada qoladi. Ikkinchi qatlam - ijtimoiy amaliyot. Sobremesa, tarof, hygge yoki uitwaaien kabi konseptlarni tushunish uchun lug'at emas, hayotiy vaziyat kerak. Bunday so'zlar qanday yashash, qanday mehmon kutish, qanday dam olish yoki qanday suhbatlashish haqidagi

madaniy odatlarni saqlaydi. Uchinchi qatlam - qadriyat. Ubuntu, kapwa, filotimo, lagom va sisu kabi tushunchalar madaniyatning axloqiy tasavvurlarini aks ettiradi. Ular insoniylik, jamoa, vijdon, me'yor va bardosh haqidagi umumiy qarashlarni bitta so'z yoki qisqa birlikda jamlaydi.

Shu sababli bunday konseptlar tarjimada ko'pincha "ma'no yo'qotish" xavfiga uchraydi. Bu yo'qotish har doim xato degani emas. Tarjima har doim tanlovdir. Ammo ilmiy, madaniyatshunoslik yoki o'quv matnlarida bunday so'zlarni oddiy sinonim bilan almashtirish yetarli bo'lmaydi. Ularni izohlash, misol keltirish va madaniy vaziyat bilan bog'lash zarur.

XULOSA

Ingliz tiliga to'liq sig'maydigan madaniy konseptlar til va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rsatadi. Saudade, hiraeth, sobremesa, hygge, lagom, sisu, tarof, ubuntu, kapwa, gezelligheid, apapacho, meraki va filotimo kabi birliklar oddiy "qiziqarli xorijiy so'zlar" emas. Ular ma'lum madaniyatlarning hissiy, axloqiy va ijtimoiy tajribasini jamlagan ma'no tugunlaridir. Bunday tushunchalarni mutlaq tarjima qilib bo'lmaydi deyish to'g'ri emas. Ularni izohlash mumkin. Ammo ko'pincha bir so'z bilan almashtirish mumkin emas. Chunki tarjima qilinayotgan narsa faqat lug'aviy ma'no emas, balki butun madaniy kontekstdir. Shu nuqtayi nazardan, madaniy konseptlar tarjimashunoslik, leksik semantika va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun juda muhim material hisoblanadi. Ular til inson tajribasini qanday tartibga solishini, qaysi hislarni nomlashini, qaysi xatti-harakatlarni qadrlashini va qaysi ijtimoiy munosabatlarni muhim deb bilishini ko'rsatadi. Demak, madaniy konseptlarni tarjima qilish - bu faqat so'z tarjimasi emas, balki dunyoqarashni sharhlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beeman, W. O. (1986). *Language, status, and power in Iran*. Indiana University Press.
2. Goddard, C., & Wierzbicka, A. (2014). *Words and meanings: Lexical semantics across domains, languages, and cultures*. Oxford University Press.
3. Jakobson, R. (1959). *On linguistic aspects of translation*. In R. A. Brower (Ed.), *On translation* (pp. 232-239). Harvard University Press.
4. Kramsch, C. (1998). *Language and culture*. Oxford University Press.
5. Mbiti, J. S. (1969). *African religions and philosophy*. Heinemann.
6. Pe-Pua, R., & Protacio-Marcelino, E. (2000). *Sikolohiyang Pilipino: A legacy of Virgilio G. Enriquez*. *Asian Journal of Social Psychology*, 3(1), 49-71.

7. Usmonova, D. F. (2025). Ingliz tilidagi grammatik tushunchalarni o'zlashtirishda tillararo farqlarni hisobga olish. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 14(1), 218-225. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15734203>
8. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford University Press.